

ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN MILLIY SERTIFIKAT UCHUN O'TKAZILGAN TEST SINOVIDA FOYDALANILGAN TEST TOPSHIRIQLARINING DISTRAKTORLARI VA KORRELYATSIYALARI

A.R. Sattiyev¹, M. Dj. Ermamatov¹, D.M. Alimov²

¹*Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o'quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12.*

²*Bilim va malakalarni baholash agentligi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12.*

Qisqacha mazmuni. Milliy sertifikat uchun tillar bo'yicha o'tkazilayotgan test sinovlarida to'rtta muqobil javobli, qisqa javobli va moslashtiruvchi test topshiriqlaridan foydalanilmoqda. Ushbu maqolada milliy sertifikat uchun ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan test sinovida foydalanilgan test variantidagi 32 ta muqobil javobli test topshirig'ining 125 ta distraktori va 14 ta qisqa javobli test topshirig'ining 14 ta hamda 3 ta moslashtiruvchi test topshirig'ining 15 ta distraktori batafsil tahlil qilingan. Hisoblashlarda R dasturida ishlatiladigan dexter to'plamidan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Klassik test nazariyasi, distraktorlar, distraktorlar chizmasi.

1. Kirish

Distraktor (ing. to distract – chalg'itmoq) deb bir yoki bir nechta to'g'ri javoblar tanloviga ega bo'lgan test topshiriqlari ichida noto'g'ri, ammo tog'ri javobga yaqin javobga aytiladi. Shuning uchun distraktorlar test topshirig'ining javobini umuman bilmasdan uni taxmin qiladigan yoki topshiriqni bajarish uchun mukammal bilimga ega bo'lmagan sinaluvchilarni tog'ri javobdan diqqatni og'dirish maqsadida ishlatiladi [1].

Test topshirig'i savoldan, to'g'ri javobni va distraktorlarni o'z ichiga olgan muqobil javoblardan iborat bo'lib, bunda samarali distraktorlarni tanlash muhim o'rin tutadi [2,3].

Odatda mutaxassislar muqobil javobli test topshiriqlarining distraktorlarini tuzish uchun savol tuzishga nisbatan kamroq vaqt sarflaydilar, lekin muqobil javoblarni tanlash ham tajriba talab qiladi.

Distraktorlar to'g'ri javoblardan farqlanishi bilan birga to'g'ri javobga o'xshash bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlarda distraktorlik vazifasini bajarmaydigan javoblar ham uchrab turadi va bu odatda juda kam tanlangan distraktorlardir. Mezon sifatida 5 foizdan kam va 95 foizdan ko'p tanlangan distraktorlarni ishlaymaydigan distraktorlar deb olinadi [2,4], shuning uchun bunday

distraktorlarni o'zgartirish tavsiya qilinadi.

Test topshiriqlarining o'zaro va umumiy ball bilan korrelyatsiyalari ham ularning o'zaro mutanosibligini va umumiy ballga qo'shgan hissasini baholash uchun muhimdir. Boshqacha aytganda, test topshiriqlarining o'zaro korrelyatsiyasi sinaluvchilar bir test topshirig'ini yaxshi (yomon) bajarayotgan bo'lsalar boshqasini ham xuddi shunday yaxshi (yomon) bajarishlarini, umumiy ball bilan

korrelyatsiya esa unga ko'proq hissa qo'shayotgan test topshiriqlari kamroq hissa qo'shayotgan test topshiriqlari bilan mutanosibligini baholash imkonini beradi.

Ushbu maqolada milliy sertifikat uchun ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan test sinovida foydalanilgan test topshiriqlarining distraktorlari va korrelyatsiyalari tahlilini keltiramiz. Hisoblashlarda biz R dasturida ishlatiladigan dexter to'plamidan foydalanamiz [5].

2. Distraktorlar tahlili

Milliy sertifikat uchun ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan test sinovida foydalanilgan variant 32 ta yopiq, 14 ta qisqa javobli hamda 3 ta moslashtiruvchi topshiriqlardan, jami 49 ta test topshirig'idan va yozma ishdan iborat. Ushbu test sinovida 8433 nafar talabgor ishtirok etgan. Maqolada foydalanilgan dastur [5] bilan olingan distraktorlar chizmasi variantdagi har bitta javoblar tanlanmasi nisbiy chastotasining parametrik bo'lmagan regressiyani ko'rsatadi. Bunda ballar yig'indisida javob berilmagan tanlovlar ham hisobga olinadi.

Quyidagi jadvallarda har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi va ushbu javoblar ichidan quyi, o'rtacha va yuqori qobiliyatli test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi keltirilgan bo'lib, bu yerda: TTS- test

topshiruvchilar soni; TMJ- tanlangan muqobil javoblar foizi; $0 \div 25$ foizi - quyi qobiliyatli - variantdagi test topshiriqlarining $0 \div 25$ foizi oralig'ida tog'ri javob bergan test topshiruvchilarning tanlagan muqobil javoblari foizi; $25 \div 75$ foizi - o'rtacha qobiliyatli - variantdagi test topshiriqlarining $25 \div 75$ foizi oralig'ida tog'ri javob bergan test topshiruvchilarning tanlagan muqobil javoblari foizi; $75 \div 100$ foizi - yuqori qobiliyatli - variantdagi test topshiriqlarining $75 \div 100$ foizi oralig'ida tog'ri javob bergan test topshiruvchilarning tanlagan muqobil javoblari foizi; A* - kalit; B, C, D, E va F distraktorlar; NA- belgilanmagan javoblardir.

O'quvchilarimizda qisqa javobli ochiq turdagi test topshiriqlarida "distraktorlar" va "kalit" degan terminlarni ishlatish noo'rin degan fikr

tug'lishi mumkin. Maqolada 14 ta qisqa javobli test topshiriqlariga berilgan to'g'ri va noto'g'ri javoblarni mos ravishda "kalit" va "distraktor" deb atashimiz mumkin, chunki aslida bunday test topshiriqlarining distraktorlari cheksiz ko'p bo'lib to'g'ri javoblar soni yagona, har qanday noto'g'ri tanlangan javoblar esa distraktor bo'ladi.

Bundan tashqari distraktor grafiklari yordamida (quyida keltirib o'tiladigan rasmlarda) distraktorlar to'g'risida ko'proq ma'lumot olish mumkin. Milliy sertifikat uchun ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan test sinovida talabgorlar ona tili va adabiyot fani bo'yicha bilimlarni

baholaydigan test variantidagi test topshiriqlari distraktorlarining grafiklarini tahlil qilib chiqamiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'lum test topshirig'iga javob bermagan talabgorlarning javobi NA bilan belgilangan. Chizmalarning pastki qismida to'g'ri javoblar ulushi (Pval), element va umumiy ball korrelyatsiyasi (Rit), element chiqarilgandagi umumiy ball bilan korrelyatsiyasi (Rir) keltirilgan. Rasmning chap burchagida distraktorlarga berilgan javoblarga mos keluvchi chiziqlar mos raqamlar (ranglar) bilan ko'rsatilgan. Qavs ichidagi 1 raqami to'g'ri javobni, (0) esa noto'g'ri javoblarni bildiradi.

1-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlangan javoblari foizi


	103840				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	2928	34,72	21,20	34,09	53,22
B	1462	17,34	21,33	17,42	12,10
C	3859	45,76	53,42	46,66	34,09
D	168	1,99	3,71	1,71	0,42
NA	16	0,19	0,33	0,12	0,16

1-jadvaldan ID raqami 103840 bo'lgan test topshirig'ining D distraktori distraktorlik vazifasini bajar-mayotganligi ko'rinadi, chunki bu javobni tanlangan talabgorlar soni 5 foizdan kam. Bu test topshirig'i hattoki

qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun ham yaxshi ishlamayotganligini qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar 3,71 foiz, o'rtacha va yuqori qobiliyatli talabgorlar mos ravishda 1,71 va 0,42 foiz

javob berganligidan ko'rish mumkin. Qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu esa, ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u qobiliyat darajasi o'rta bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin.

Shunga qaramasdan 0,19 foiz talabgorlar ushbu test topshirig'ini umuman belgilamaganlar. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlaganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganliklarini anglatadi.



1-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 103840 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

1-rasmdan 103840 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,35 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari shartli ravishda 3 ga bo'linganda 2-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun

umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,269, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,198 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi mazkur test topshirig'i 2-qiyinlik darajasida bo'lganligi tufayli yaxshi emasligini ko'rsatadi. 103840 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi

0,1÷0,2 oralig'idan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talab-

gorlarning test topshiriqlariga to'g'ri javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi 0,1÷0,6 oraliqdan boshlanib, 0,10 gacha kamayib borishini 1-rasmdan ko'rish mumkin.


2-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	103851				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	7087	84,04	65,48	88,61	97,52
B	461	5,47	11,56	4,05	0,85
C	574	6,81	14,94	4,70	1,11
D	301	3,57	7,80	2,56	0,42
NA	10	0,12	0,21	0,07	0,11

2-jadvaldan ID raqami 103851 bo'lgan test topshirig'ining D distraktori distraktorlik vazifasini bajarayotganligi ko'rinadi, chunki bu javobni tanlagan talabgorlar soni 5 foizdan kam bo'lsa-da, aslida bu test topshirig'i faqat qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar 7,80 foiz, o'rtacha va yuqori qobiliyatli talabgorlar mos ravishda 2,56 va 0,42 foiz javob berganligidan ko'rish mumkin. Qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi

yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,12 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rganligini, tasodifan javoblarni tanlaganliklarini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



2-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 103851 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

2-rasmdan 103851 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,84 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari shartli ravishda 3 ga bo'linganda 1-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 1-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,360, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,309 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi mazkur test topshirig'i 1-qiyinlik darajasida bo'lganligi tufayli yaxshi ekanligini ko'rsatadi. 103851 ID


raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,3 \div 0,4$ oralig'idan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga to'g'ri javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,1 \div 0,3$ oraliqdan boshlanib, 0,15 gacha kamayib borishini 2-rasmdan ko'rish mumkin.

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	103883				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	6969	82,64	65,23	86,63	95,93
B	767	9,10	17,36	7,41	2,33
C	229	2,72	7,10	1,38	0,11
D	453	5,37	9,97	4,44	1,59
NA	15	0,18	0,33	0,14	0,05

3-jadvaldan ID raqami 103883 bo'lgan test topshirig'ining C distraktori distraktorlik vazifasini bajarayotganligi ko'rinadi, chunki bu javobni tanlagan talabgorlar soni 5 foizdan kam bo'lsa-da, aslida bu test topshirig'i faqat qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar 7,10 foiz, o'rtacha va yuqori qobiliyatli talabgorlar mos ravishda 1,38 va 0,11 foiz javob berganligidan ko'rish mumkin. Qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi

yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,18 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlaganliklarini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



3-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 103883 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

3-rasmdan 103883 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,83 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 1-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos kelmaydi. Ushbu test topshirig'i mutaxassislar tomonidan 3-qiyinlik darajasida deb belgilangan. Aniqlangan qiyinlik darajalari mutaxassislar tomonidan belgilangan qiyinlik darajalaridan keskin farq qilgan hollarda bunday test topshiriqlari mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqilishi lozim. 1-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,332, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,278 ga


tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi ekanligini ko'rsatadi. 103883 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,4 \div 0,5$ oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,1 \div 0,3$ oraliqdan boshlanib, 0,10 gacha kamayib borishini 3-rasmdan ko'rish mumkin.

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	103888				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	7075	83,90	63,90	89,26	97,46
B	217	2,57	5,76	1,76	0,32
C	706	8,37	17,86	6,01	1,53
D	425	5,04	12,19	2,92	0,63
NA	10	0,12	0,29	0,05	0,05

4-jadvaldan ID raqami 103888 bo'lgan test topshirig'ining B distraktori distraktorlik vazifasini bajarayotganligi ko'rinadi, chunki bu javobni tanlagan talabgorlar soni 5 foizdan kam bo'lsa-da, aslida bu test topshirig'i faqat qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar 5,76 foiz, o'rtacha va yuqori qobiliyatli talabgorlar mos ravishda 1,76 va 0,32 foiz javob berganligidan ko'rish mumkin. Qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib

borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan talabgorlarning 0,12 foiz ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlamaganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



4-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 103888 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

4-rasmdan 103888 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,84 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 1-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos kelmaydi. Ushbu test topshirig'i mutaxassislar tomonidan 2-qiyinlik darajasida deb belgilangan. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,324, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,375 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi emasligini

ko'rsatadi. 103888 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,4 \div 0,5$ oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,1 \div 0,3$ oraliqdan boshlanib, 0,10 gacha kamayib borishini 4-rasmdan ko'rish mumkin.


Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	103895				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	5482	65,01	43,32	68,15	85,57
B	847	10,04	17,20	8,83	3,65
C	1274	15,11	24,00	13,78	6,77
D	823	9,76	15,36	9,17	3,96
NA	7	0,08	0,13	0,07	0,05

5-jadvaldan ID raqami 103895 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,08 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tan-

laganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.

5-rasmdan 103895 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,65 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 2-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,332, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,278 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi emasligini ko'rsatadi. 103895 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,2÷0,3 oraliqdan boshlab oshib borayotganini ko'rish mumkin.



5-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 103895 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriq-

lariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,2 \div 0,4$ oraliqdan boshlanib, $0,10$ gacha kamayib borishini 5-rasmdan ko'rish mumkin.

6-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi


	104210 (ochiq)				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	5655	67,06	55,84	68,08	79,02
B	2778	32,94	44,16	31,92	20,98

6-jadvaldan ID raqami 104210 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat

darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib

borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u

qobiliyat darajasi o'rtacha bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin.



6-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 104210 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

6-rasmdan 104210 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,67 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 2-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,195, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,123 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi emasligini ko'rsatadi. 104210 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri

javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,4÷0,5 oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi 0,5÷0,6 oraliqdan boshlanib, 0,20 gacha kamayib borishini 6-rasmdan ko'rish mumkin.


7-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	104216 (ochiq)				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	5729	67,94	53,88	70,25	80,66
B	2704	32,06	46,12	29,75	19,34

7-jadvaldan ID raqami 104216 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib

borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u qobiliyat darajasi o'rtacha bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin.



7-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 104216 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

7-rasmdan 104216 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,68 ekanligini, bu

esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 2-qiyinlik darajasida ekanligini

ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,238, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,167 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi emasligini ko'rsatadi. 104216 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,3 \div 0,4$ oraliqdan boshlanib oshib

borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,6 \div 0,7$ oraliqdan boshlanib, 0,20 gacha kamayib borishini 7-rasmdan ko'rish mumkin.


8-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	104237 (ochiq)				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ</i> , %	<i>0÷25</i> , %	<i>25÷75</i> , %	<i>75÷100</i> , %
A*	7408	87,85	78,51	89,99	94,98
B	1025	12,15	21,49	10,01	5,02

8-jadvaldan ID raqami 104237 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob

beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin.



8-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 104237 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

8-rasmdan 104237 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,88 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 1-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos kelmaydi. Ushbu test topshirig'i mutaxassislar tomonidan 2-qiyinlik darajasida deb belgilangan. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,218, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,169 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi emasligini


ko'rsatadi. 104237 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,5÷0,6 oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi 0,4÷0,5 oraliqdan boshlanib, 0,10 gacha kamayib borishini 8-rasmdan ko'rish mumkin.

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	104241 (ochiq)				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	7506	89,01	83,97	90,01	93,18
B	927	10,99	16,03	9,99	6,82

9-jadvaldan ID raqami 104241 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob

beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosa qilish mumkin.



9-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 104241 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

9-rasmdan 104241 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,89 ekanligini,

bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 1-qiyinlik darajasida ekan-

ligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos kelmaydi. Ushbu test topshirig'i mutaxassislar tomonidan 2- qiyinlik darajasida deb belgilangan. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,123, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,075 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yomon ekanligini ko'rsatadi. 104241 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,7 \div 0,8$

oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,2 \div 0,3$ oraliqdan boshlanib, 0,15 gacha kamayib borishini 9-rasmdan ko'rish mumkin.

10-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi


	105022				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	6656	78,93	65,11	81,23	91,38
B	309	3,66	5,13	3,40	2,38
C	332	3,94	6,84	3,47	1,27
D	1114	13,21	22,62	11,65	4,70
NA	22	0,26	0,29	0,24	0,26

10-jadvaldan ID raqami 105022 bo'lgan test topshirig'ining B va C distraktorlari distraktorlik vazifasini bajarmayotganligi ko'rinadi, chunki bu javobni tanlagan talabgorlar soni 5 foizdan kamdir. Aslida bu test topshirig'i faqat qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar B distraktorga 5,13

foiz, o'rtacha va yuqori qobiliyatli talabgorlar mos ravishda 3,40 va 2,38 foiz hamda qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar C distraktorga 6,84 foiz, o'rtacha va yuqori qobiliyatli talabgorlar mos ravishda 3,47 va 1,27 foiz javob berganligidan ko'rish mumkin. Qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi

oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,26 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini

umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlaganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



10-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105022 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

10-rasmdan 105022 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,79 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 1-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos

keladi. Ushbu test topshirig'i mutaxassislar tomonidan 1-qiyinlik darajasida deb belgilangan. 1-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,218, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,169 ga tengligi ushbu test

topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yomon ekanligini ko'rsatadi. 105022 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,4 \div 0,5$ oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib

borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,1 \div 0,4$ oraliqdan boshlanib, 0,05 gacha kamayib borishini 10-rasmdan ko'rish mumkin.


11-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	105029				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	4959	58,80	37,69	60,31	82,24
B	855	10,14	17,36	9,29	2,85
C	1165	13,81	21,08	12,88	6,66
D	1435	17,02	23,50	17,35	8,09
NA	19	0,23	0,38	0,17	0,16

11-jadvaldan ID raqami 105029 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z

vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,23 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlaganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



11-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105029 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushining bog'liqligi

11-rasmdan 105029 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,59 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 2-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos kelmaydi. Ushbu test topshirig'i mutaxassislar tomonidan 1-qiyinlik darajasida deb belgilangan. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,349, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,279 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi ekanligini

ko'rsatadi. 105029 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,2 \div 0,3$ oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,2 \div 0,3$ oraliqdan boshlanib, 0,1 gacha kamayib borishini 11-rasmdan ko'rish mumkin.

12-jadval


Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	105052				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	4507	53,44	28,38	54,57	82,72
B	1852	21,96	33,89	21,50	7,88
C	669	7,93	12,60	7,67	2,59
D	1370	16,25	24,71	15,90	6,29
NA	35	0,42	0,42	0,36	0,53

12-jadvaldan ID raqami 105052 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,42 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rma-

ganligini, tasodifan javoblarni tanlaganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.

12-rasmdan 105052 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,53 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 2-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,413, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,345 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi o'rtacha ekanligini ko'rsatadi. 105052 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,1÷0,2 oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin.



12-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105052 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga

javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,1 \div 0,4$ oraliqdan boshlanib, $0,05$ gacha kamayib borishini 12-rasmdan ko'rish mumkin.


13-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	105056				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	4547	53,92	29,38	55,56	81,40
B	2013	23,87	27,38	26,54	13,58
C	1090	12,93	24,67	10,47	3,44
D	770	9,13	18,24	7,36	1,48
NA	13	0,15	0,33	0,07	0,11

13-jadvaldan ID raqami 105056 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z

vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,15 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamaganlar. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlaganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



13-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105056 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

13-rasmdan 105056 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,54 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 2-qiyinlik darajasida ekanligini

ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos kelmaydi. Ushbu test topshirig'i mutaxassislar tomonidan 3-qiyinlik darajasida deb belgilangan. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun

umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,413, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,345 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi ekanligini ko'rsatadi. 105056 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,1 \div 0,2$ oraliqdan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib

borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,1 \div 0,4$ oraliqdan boshlanib, 0,05 gacha kamayib borishini 13-rasmdan ko'rish mumkin.

14-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi


	105068				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	5688	67,45	40,94	71,92	91,23
B	2105	24,96	43,11	22,24	7,93
C	487	5,77	11,77	4,66	0,63
D	141	1,67	3,88	1,09	0,16
NA	12	0,14	0,29	0,10	0,05

14-jadvaldan ID raqami 105068 bo'lgan test topshirig'ining D distraktori distraktorlik vazifasini bajarayotganligi ko'rinadi, chunki bu javobni tanlagan talabgorlar soni 5 foizdan kamdir. Bu test topshirig'i hattoki qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun ham yaxshi ishlayotganligini qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar 3,88 foiz, o'rtacha va yuqori qobiliyatli talabgorlar mos ravishda 1,09 va 0,16 foiz javob berganligidan ko'rish mumkin. Qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan

yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligini va u qobiliyat darajasi quyi bo'lgan talabgorlar uchun degan xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,14 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu hattoki qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar orasida ham

uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanla-

ganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



14-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105068 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

14-rasmdan 105068 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,67 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i qiyinlik darajasi 2-qiyinlik darajasida ekanligini, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos ekanligini ko'rish mumkin. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,427, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,364 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi ekanligini ko'rsatadi. 105068 ID raqamli test

topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,1÷0,2 oralig'idan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. B distraktorni juda yaxshi distraktor deb hisoblash mumkin, chunki u faqat juda yuqori tayyorgarlikka ega bo'lgan talabgorlarning javoblariga ta'sir qilmaydi. Bu

ushbu test topshirig'i yuqori va quyi qobiliyatlarni yaxshi ajratishini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi

0,1÷0,6 oraliqdan boshlanib, 0,05 gacha kamayib borishini 14-rasmdan ko'rish mumkin.


15-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	105070				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	4117	48,82	20,95	50,18	81,13
B	1521	18,04	30,38	16,69	5,34
C	1857	22,02	34,97	21,18	7,45
D	908	10,77	13,23	11,48	6,08
NA	30	0,36	0,46	0,46	0

15-jadvaldan ID raqami 105070 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin.

Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Shunga qaramasdan 0,36 foiz talabgor ushbu test topshirig'ini umuman belgilamagan. Bu qobiliyat darajasi o'rtacha bo'lgan talabgorlar orasida ham uchraydi. Bu esa qobiliyat darajasi o'rtacha bo'lgan talabgorlar ham ba'zi oson savollarga tayyorgarlik ko'rmaganligini, tasodifan javoblarni tanlaganligini yoki ushbu javobni belgilashga ulgurmaganligini anglatadi.



15-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105070 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

15-rasmdan ham 105070 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar ulushi (Pval) 0,49 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i 2-qiyinlik darajasida ekanligini, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos ekanligini ko'rish mumkin. 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,451, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,385 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi ekanligini ko'rsatadi. 105070 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi 0,1÷0,2 oralig'idan boshlanib oshib borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri


javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ida B va C distraktorlarni juda yaxshi deb hisoblash mumkin, chunki ular faqat juda yuqori tayyorgarlikka ega bo'lgan talabgorlarning javoblariga ta'sir qilmaydi. Bu ushbu test topshirig'i yuqori va quyi qobiliyatlarni yaxshi ajratishini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi 0,1÷0,6 oraliqdan boshlanib, 0,05 gacha kamayib borishini 15-rasmdan ko'rish mumkin.

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	105115 (ochiq)				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	7791	92,39	86,81	93,49	97,04
B	642	7,61	13,19	6,51	2,96

16-jadvaldan ID raqami 105115 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob

beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan esa ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin.



16-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105115 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

16-rasmdan 105115 ID raqamli test topshirig'iga to'g'ri javob ber-

ganlar ulushi (Pval) 0,92 ekanligini, bu esa ushbu test topshirig'i test

topshiriqlari qiyinlik darajalari bo'yicha 1-qiyinlik darajasida ekanligini ko'rsatadi, bu mutaxassis tomonidan belgilangan qiyinlik darajasiga mos keladi. 1-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun umumiy ball bilan korrelyatsiyaning (Rit) 0,161, u umumiy balldan chiqarilgandagi korrelyatsiyaning (Rir) 0,123 ga tengligi ushbu test topshirig'ining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi yaxshi emasligini ko'rsatadi. 105115 ID raqamli test topshirig'ining to'g'ri javobini (A-chiziq) tanlaganlar ulushi $0,7 \div 0,8$ oraliqdan boshlanib oshib

borayotganini ko'rish mumkin. To'g'ri javoblar soni oshib borishi bilan absissa o'qidagi o'zgaruvchining barcha o'zgarish sohasida oshib borganini ko'rish mumkin. Bu tayyorgarlik darajasi oshib borishi bilan talabgorlarning test topshiriqlariga javob berish ehtimoli oshib borayotganini bildiradi. Ushbu test topshirig'ining distraktorlariga javob berganlar ulushi $0,2 \div 0,3$ oraliqdan boshlanib, 0,05 gacha kamayib borishini 16-rasmdan ko'rish mumkin.


17-jadval

Har bir test topshirig'iga test topshiruvchilarning tanlagan javoblari foizi

	105124 (ochiq)				
	<i>TTS</i>	<i>TMJ, %</i>	<i>0÷25, %</i>	<i>25÷75, %</i>	<i>75÷100, %</i>
A*	1847	21,90	11,77	23,02	32,29
B	6586	78,10	88,23	76,98	67,71

17-jadvaldan ID raqami 105124 bo'lgan test topshirig'ining distraktorlari distraktorlik vazifasini yaxshi bajarayotganligi ko'rinadi. Bu test topshirig'i barcha talabgorlar uchun yaxshi ishlayotganligini, qobiliyat darajalari bo'yicha quyidan yuqoriga qarab yurganimizda to'g'ri javob beruvchi talabgorlar foizi oshib borganligi ko'rinadi. Distraktorlarni tanlaganlar foizi esa qobiliyat darajasi yuqori bo'lib borgan sari kamayib

borayotganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari talabgorlarning ko'proq foizi kalitga nisbatan distraktorni tanlaganlari bilan qobiliyat darajasi oshib borgan sari distraktorga berilgan javoblar foizining kamayishi, kalitga berilgan javoblar foizi esa oshib borishi kuzatilmoqda. Umuman olganda ushbu test topshirig'i o'z vazifasini bajarayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin.



17-rasm. To'g'ri javoblar sonining va 105124 ID raqamli test topshirig'i muqobil javoblarini tanlagan talabgorlar ulushlarining bog'liqligi

